

Toshloq tuman hokimligi huzuridagi “Fuqarolar tashabbusi
jamg‘armasi”ga 2022 yil "Tashabbusli budjet" jarayonining
2-bosqichi natijalari bo‘yicha ma’lumot.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrda “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5250-sonli qaroriga asosan Toshloq tuman hokimligi huzuridagi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga 2022-yil "Tashabbusli budjet" jarayonining 2-bosqichi davomida tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan 1 444,0 mln.so‘m, budjet mablag‘larining 5% qismi jamg‘arma uchun ajratilishi hisobiga 4 304,0 mln.so‘m va tashabbusli budjet jarayonining 1-bosqichida g‘olib deb topilgan takliflarni amalga oshirishdan iqtisod qilinish jamg‘armaga qayta yo‘naltirilgan 80,0 mln.so‘m, jami 5 828,0 mln.so‘m mablag‘lar g‘olib takliflar uchun yo‘naltirildi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining openbudget.uz rasmiy veb sayti orqali mavjud mahalliy muammolarni bartaraf etish maqsadida 2022-yil "Tashabbusli budjet" jarayonining 2-bosqichi davomida fuqarolar tomonidan 160 ta takliflar kelib tushgan bo‘lib, shundan 7 ta takliflar ishchi komissiya tomonidan nizom talablaridan kelib chiqib rad etilgan hamda 153 ta takliflar ovoz berish jarayoniga o‘tkazilgan. Ovoz berish jarayoni 17 sentabr kuniga qadar davom etib, 153 ta tashabbuslar uchun jami 50 973 ta ovoz kelib tushgan bo‘lib, tuman aholisining 24,2 % jarayonda ishtirok etgan. Yakuniy natijalariga ko‘ra eng ko‘p ovoz olgan qiymati 4 750.0 mln.so‘mlik 6 ta loyiha g‘olib deb topilgan. Jumladan,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI FARG‘ONA
VILOYATI TOSHLOQ TUMAN HOKIMLIGI MOLIYA BO‘LIMI MINISTRY
OF FINANCE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FINANCIAL
DEPARTMENT ADMINISTRATION OF FERGHANA REGION TOSHLOQ
DISTRICTI.JRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган,

Хужжат коди: LE02560536 - Toshloq tumani markaziy shifoxona qabul diagnostika bo‘limiga 1 dona zamonaviy UTT hamda zamonaviy raqamli rentgen aparatlarini sotib olish uchun uchun 950,0 mln.so‘m (ID raqami 1450600027); - Toshloq tumani 51-sonli umumta’lim maktab issiqlik tizimini yaxshilash tadbirlari uchun 800,0 mln.so‘m (ID raqami 1450600019); - Toshloq tumani 9-sonli umumta’lim maktab issiqlik tizimini yaxshilash tadbirlari uchun 900,0 mln.so‘m (ID raqami 1450600136); - Toshloq tumani 22-sonli umumta’lim maktab binosini joriy ta’mirlash uchun 1 100,0 mln.so‘m (ID raqami 1450600016); - Toshloq tumani 3-sonli umumta’lim maktab binosini joriy ta’mirlash uchun 500,0 mln.so‘m (ID raqami 1450600018); - Toshloq tumani 45-sonli umumta’lim maktab issiqlik tizimini yaxshilash tadbirlari uchun 500,0 mln.so‘m (ID raqami 1450600020).

Umumiy xisobda tumanda 2022 yil "Tashabbusli budjet" jarayonining 2-bosqichi natijalari bo'yicha jami 4 750,0 mln.so'mlik 6 ta taklif "g'olib" deb topilgan.